

BEHBUDIYNING TA'LIM SOHASIDAGI PEDAGOGIK FAOLIYATI

Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika
instituti o'qituvchisi*

Xudoyorova Dinora Farhod qizi

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika
Instituti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lismi, maorif sohasidagi qilingan islohotlari, yaratgan darsliklari, Behbudiya kutubxonasining faoliyati, gazeta-jurnallarning chop etilishi, usuli jadid maktablardagi fanlararo integratsiyalashuvi, arab tili o'qitilishining yangi texnologiyalari, eski usul maktablardagi ta'lismi tizimni olib borishdagi kamchiliklar haqidagi qattiq tanqidlari va albatta mustaqillik davrlarida jadidlarning faoliyati haqidgi o'rganishlar, davlat rahbarimiz tomonidan jadidlar namoyandalarining e'tirof etilganlik borasida muxtasar fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Mahmudxo'ja Behbudi, jadid, usuli jadid maktabi, arab gramatikasi, Siddiqiy Ajziy, Abduqodir Shakuriy Samarqandning Rajabamin qishlog'ida, Hoji Muin Xo'ja Nisbatdor, "Risolai asbobi savod", "Risolai jug'rofiyai umroniy", "Risolai jug'rofiyoyi Rusiy", "Kitobat ul-atfol", "Amaliyoti islom", "Tarixi islom", "Samarqand" gazetasi, "Oina", matbuot, istiqlol.

Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatining eng yirik namoyandası, Turkiston jadidları rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining bayroqdori, yangi maktabchilik nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasi asoschisi, noshir, publisist, pedagog Mahmudxo'ja Behbudi (1875-1919-y.) tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashab ijod qilgan. U O'zbekistonda zamonaviy ta'lismi tizimini shakllantirish, milliy o'zlikni saqlash va ilmiy bilimlarni keng targ'ib etish yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirdi. XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida jadidchilik harakati rivoj topishida Behbudi va uning maslakdoshlarining xizmatlari beqiyosdir. Bu harakatning asosiy maqsadi ta'lismi sistemasini isloh qilish, xalqni bilimli qilish barobarida o'zlikni anglashlikni o'qtirish, inson huquqlarining poymol bo'lmasligi, yoshlar ta'lismi tarbiyasi, kasb o'rganishlik masalalari, shuningdek aholining farovon hayot tarzini yaratish kabi muammolarni hal qilish, umuman jamiyatini isloh qilish, zamonaviy bilim va fanlarni joriy etish kabi jiddiy muammolarni bartaraf etishlikdan iborat edi. Ammo bu kabi islohotlarning negizida ilm-fan va ta'lismi sistemasi turar edi. Boisi ilm-fan taraqqiy etmagan jamiyatning uzoq kelajagini porloq ko'rishlik nomumkin deb hisoblashardi. Shu

asnoda jadidchilik harakatining namoyandalari tomonidan o'sha davrdagi ta'lim tizimiga o'zgartirishlar kiritish, isloh etish asosiy vazifalardan biri bo'lib turar edi. Mahmudxo'ja Behbudiylarning yo'lboshchisi sifatida maktablar ochishga, gazeta jurnallarni chop qilishda, darsliklar yaratishda yetakchilik qilib kelardi. Aynan ta'lim jarayoning kamchiliklarini Behbudiylarning birida qattiq tanqid qilib, quyidagi mazmunga keltiradi: "...Turkistonda mакtab yo'q, muallim yo'q, masjid oldidagi xujralar mакtab emas, unda yurgan bolalar shogird emas, alarni qamchi urib yurgan muazzinlar muallim emaslar... Yolg'iz qorin to'lдirmoq fikri va xalqiga o'zlarini aziz ko'rsatmoq niyati ila muqaddas muallimlik masrisini kasb qilg'an noloyiq afandilar shogirdlarini tilsiz va quloqsiz aylab, bilimsizlikka g'arq etmoqdadurlar...".

Behbudiylarning jadidchilik g'oyalari bilan tanishganidan so'ng, zamonaviy ta'limning ahamiyatini chuqur anglab yetdi va bu borada o'z hissasini qo'shishga qaror qildi. Jadid maktablari asoschisi sifatida Behbudiylarning o'sha davrda O'rta Osiyo musulmon xalqlari orasida keng tarqalgan eski usul maktablarining kamchiliklarini chuqur tahlil qildi. Ubu maktablarda asosan diniy fanlar o'qitilishi, zamonaviy ilm-fan, matematika, geografiya kabi fanlar o'qitilmasligini tanqid qildi. Shu sababdan, Behbudiylarning usuldagagi maktablar — jadid maktablarini tashkil etishni boshladi. 1903-yili alloma tashabbusi bilan shogirdlari Siddiqiy Ajziy, Abduqodir Shakuriy Samarqandning Rajabamin qishlog'ida, Hoji Muin Xo'ja Nisbatdor mahallasida jadid maktablarini ochadi. Behbudiylarning faoliyatini tashkil etish bilan birga, ular uchun "Risolai asbobi savod" (1904-y.), "Risolai jug'rofiyai umroniy" (1905-y.), "Risolai jug'rofiyoyi Rusiy" (1905-y.), "Kitobat ul-atfol" (1908-y.), "Amaliyoti islom" (1908-y.), "Tarixi islom" (1909-y.) kabi darslik va qo'llanmalar ham yozadi.

1908-yili "Qiroatxonayi Behbudiya" (keyinchalik "Behbudiya" nomi bilan mashhur bo'lgan) kutubxonasini ochadi. Ushbu kutubxona ikki navbatda – soat 9-00 dan 17-00 gacha va soat 18-00 dan 24-00 gacha kitobxonlarga xizmat ko'rsatgan. Alloma "Samarqand kutubxona islomiyasi" maqolasida kutubxonada 600 ta kitob va risola, gazeta va jurnal esa undan ham ko'p bo'lganini yozadi. 1914-yilgi sayohati davomida Kavkaz, Qrim, Turkiya, Yunoniston, Bulg'oriston, Avstriya va Olmonianing turli shaharlarida bo'lib, u yerlardan o'z kutubxonasi uchun juda ko'p kitob va risolalar olib keladi. Bu maktablarda talabalarga zamonaviy bilimlarni, jumladan, tabiiy fanlar, tarix va geografiyanı o'rgatishni zamonaviy tarzda taklif etildi. Behbudiylarning maktablari Turkiston milliy va zamonaviy ta'lim tizimining asosini tashkil etishiga ishonardi.

Mahmudxo'ja Behbudiylarning yangi usul maktablari faoliyatini tashkil etish, darsliklar yozish, kutubxona ochish bilan cheklanib qolmagan. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib borish, millat va Vatan ahvoldidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lish uchun 1913-yildan matbuot ishlarini yo'lga qo'yadi va shu yilning apreldidan "Samarqand" gazetasi hamda avgust oyidan "Oina" jurnalini chiqara boshlaydi.

“Samarqand” gazetasi o‘zbek va tojik tillarida, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 1913-yil 17-sentabrda gazetaning 45-soni chiqqach, bir tomondan, mustamlakachilar senzurasi, ikkinchi tomondan, yetarli mablag‘ bo‘lmasani sabab to‘xtatiladi. Haftalik “Oyina” jurnali obunachilarini nafaqat Turkiston, balki Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyada ham bor edi. 1915-yilgacha nashr qilingan jurnalda Turkiston aholisining haq-huquqi, tarixi, til-adabiyot masalalariga bag‘ishlangan g‘oyat muhim maqolalar, bahslar berib o‘z g‘oyalarini ommaga yetkazish uchun gazeta va jurnallarni nashr etishga kirishdi va matbuot orqali ta’limni targ‘ib qildi. U o‘z maqolalari orqali ta’limning ahamiyati, yangi usulda ta’lim berish zarurati haqida yozib, keng jamoatchilikni bu borada ongli ravishda o‘ylashga chaqirdi. Ayniqsa, til masalasi muharrirning hamisha diqqat markazida turgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy millat taraqqiysi uchun kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni bir necha tilni bilishni shart, deb hisoblagan. Bu borada xorijiy tillarni o‘qitish texnologiyasini qiziqarli va soddalashtirgan variantda o‘rgatish kerakligi haqida o‘z taklifi bilan chiqadi. Jumladan, arab alifbosini isloh qilishda Behbudiy arab alifbosining murakkabligi va uni o‘rganishdagi qiyinchiliklar sababli alifboni soddalashtirish kerakligini ta’kidlab, bu borada harakatlarini boshladi. Uning fikricha, soddalashtirilgan alifbo xalq o‘rtasida savodxonlikni oshirishga xizmat qilishi kerak edi. Arab alifbosi ko‘plab musulmon mamlakatlarida, shu jumladan, Markaziy Osiyoda ham asosiy yozuv tizimi sifatida ishlatilgan. Biroq, arab alifbosining o‘ziga xos xususiyatlari – harflarning bir nechta shakllari, ba’zi harflarning talaffuzi va yozilishi orasidagi farqlar, tovushlarning barcha turini ifoda etishdagi qiyinchiliklar savodxonlikni keng xalq ommasi orasida yoyilishiga to‘sqinlik qilardi. Behbudiy va boshqa jadidchilik harakati vakillari bu muammoni ilsoh qilish payia alifboni soddalashtirish orqali savodxonlik darajasini oshirishga harakat qilishdi.

Behbudiy arab alifbosini isloh qilishda bir nechta muhim yo‘nalishlarni taklif qildi: Tovushlarning aniq ifodasi:

- Arab alifbosida o‘zbek tilidagi ba’zi tovushlarni aniq ifodalashda qiyinchiliklar mavjud edi. Behbudiy alifbodagi ba’zi harflarni soddalashtirish va o‘zbek tiliga xos tovushlarni aniqroq ifoda etish uchun qo‘srimcha belgilar kiritishni taklif qildi. Bu esa o‘zbek tilini yozuvda ifodalashni osonlashtirishi kerak edi.
- Yozuvning bir xil shakli: Arab alifbosida har bir harfning boshida, o‘rtasida va oxirida turli shakllar bilan yozilishi savodxonlikni o‘rgatishda muammolar tug‘dirardi. Behbudiy harflarning bir xil shaklda yozilishini taklif qilgan, bu esa o‘quvchilarga yozuvni osonroq o‘rganishga yordam berardi.
- Matbuot va darsliklar uchun moslashtirish: Behbudiy arab alifbosini soddalashtirish orqali uni matbuot va darsliklarda keng qo’llashni maqsad

qilgan. Uning fikricha, soddalashtirilgan alifbo matbuot vositalarida tezroq o‘zlashtirilib, savodxonlikning oshishiga turki berishi kerak edi.

- Xalq ommasi uchun qulay alifbo yaratish: Behbudiyning islohoti, avvalo, oddiy xalq uchun mo‘ljallangan edi. U zamonaviy ta‘lim va madaniyatni xalq ommasi orasida yoyish uchun yozuvni qulay va tushunarli qilish kerakligini ta‘kidlagan.

Islohotning natijalari va merosi Behbudiylar tomonidan ilgari surilgan arab alifbosini isloh qilish g‘oyalari jadid maktablari orqali amalga oshirildi va o‘z davrida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu islohotlar natijasida savodxonlik darjasini oshdi, ta‘lim sifatini yaxshilash imkoniyati paydo bo‘ldi. Biroq, Behbudiylar hayotligida bu islohotlar to‘liq amalga oshirilmadi. XX-asrning 20-yillarida sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan Markaziy Osiyo respublikalarida kirill alifbosiga o‘tish jarayoni boshlandi, bu esa arab alifbosini isloh qilish harakatini to‘xtatdi. Shunga qaramay, Behbudiyning arab alifbosini isloh qilishga bo‘lgan urinishlari o‘z davrida katta ahamiyatga ega bo‘lgan va Markaziy Osiyo madaniy merosining muhim qismi sifatida yodga olinadi. Bu islohot o‘z davrida katta e’tibor qozongan va jadid maktablarida o‘z aksini topgan.

Behbudiylar diniy ta‘lim bilan cheklanib qolmaslikni va o‘quvchilarga dunyoviy bilimlarni ham o‘rgatishni maqsad qilgan. U matematika, geografiya, tarix, tabiiyot kabi fanlarni mifik dasturiga kiritdi. Bu esa o‘quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytirish va ularni jamiyatning faol a’zolariga aylantirishga xizmat qildi desak mubolag‘a bo‘lmas. Behbudiyning ta‘lim sohasidagi faoliyati milliy o‘zlikni saqlash va milliy madaniyatni rivojlantirish bilan ham uzviy bog‘liq. U ta‘lim orqali yosh avlodda milliy o‘zlikni, o‘z xalqiga va diniga bo‘lgan sadoqatni tarbiyalashni asosiy maqsadlardan biri edi. Behbudiylar milliy madaniyat va an‘analarni saqlab qolish zarurligini tushunib, zamonaviy bilimlarni o‘z milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish tarafadori bo‘lgan. Jadidlarimiz, xususan Behbudiyning bu kabi jonkuyarliklarini bugungu kun yoshlari anglashimiz, o‘zganishimiz va albatta ajdodlarga munosib bo‘lishimiz lozim.

Mustaqilligimiz davrlarida jadidchilik harakatining namoyandalari, ularning ijod va faoliyati, pedagogik qarashlari, umuman hayot yo‘llari tadqiqotchilar, olimlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Aynan istiqlol davrlarida buyuk ajdodlarimizning shaxsi qaytatadan o‘rganilib, ularning nomi abadiylashtirib, qadrlanmoqda. Buning birgina misoli sifatida davlatimiz rahbari 2020-yil 30-sentabr sanasida “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan ziyoli va pedagoglar bilan uchrashuvdag‘i nutqlarida jadidchilik harakati va uning yirik namoyandalari haqida to‘xtalib, “...mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi... Bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurban qildilar”

[1] mazmunidagi fikrlarini bayon etib, uch jadid – Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovni istiqlol, ozodlik, erkinlik uchun qilgan fidokorligi, milliy ta’lim va tarbiya tizimini yaratishdagi hissasi o‘laroq “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlaganini bildirdi. O‘z davridayoq “Turkiston jadidchilik harakati otasi”, deb e’tirof etilgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning qilgan xizmatlari e’tirof etilib, davlatimiz rahbari tomonidan munosib taqdirlandi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’lim sohasidagi faoliyati bilan millatning madaniy va ilmiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning pedagogik yondashuvlari, metodikalari va ta’lim sohasidagi islohotlari hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Behbudiy milliy ta’lim tizimini yaratishda, yosh avlodni ilmiy, ma’naviy va madaniy jihatdan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashda poydevor qo‘ygan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2022-yil 19-yanvar, 12-son
2. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" www.ziyonet.com [1-bet]
3. Turdiev Sh. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. T.: 2006, [225-bet].
4. Dolimov. Ulug‘bek Jadidchilikning tamal toshi" "Jahon adabiyoti", 2010 yil, 1-son.
5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O‘zbekistonning yangi tarixi Markazi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, 1999.